

O'ZBEK TILINI O'QITISHDA IDROK XARITASINING O'RNI

JDPI o'qituvchisi. O.Mamirov


Ma'lumki, XXI asr *kompyuter* texnologiyalari, ilg'or pedagogika va axborot texnologiyalari (internet), yuksak tafakkur, fan va texnikaning jadal taraqqiyot asri bo'ladi. XXI asr boshiga kelib, "Elektron ta'lim", "Elektron boshqaruv", "Ochiq ta'lim", "Masofaviy ta'lim", "Axborotlashgan ta'lim" "Innovatsion ta'lim", "Innovatsion pedagogik texnologiya" kabi tushunchalar hayotimizga kundan-kun singib bormoqda. Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov so'zlari bilan aytganda, "Hozirgi axborot, kommunikatsiya, kompyuter texnologiyalari asrida, internet kundan-kunga hayotimizning barcha jabhalariga tobora chuqur va keng kirib borayotgan bir paytda, odamlarning ongi va tafakkuri uchun kurash hal qiluvchi ahamiyat kasb etayotgan bir vaziyatda bu masalalarning jamiyatimiz uchun naqadar dolzarb va ustuvor bo'lib borayotgani haqida gapirib o'tirishga hojat yo'q".

Hozirgi paytda injenerlik lingvistikasi, hisoblash lingvistikasi, matematik lingvistika va "elektron - tarjimon", kompyuter lingvistikasi yuzasidan bir qator yangi muammolar o'rtaga tashlanmoqda. Darhaqiqat, zamonaviy kompyuter juda ulkan imkoniyatlarga egaki, uning uchun shaxmat o'ynashdan tortib, tibbiy tashxis qo'yish, korxonalarni boshqarish, qadimgi xalqlarning sirli xatlarini "o'qib", mazmunini so'zlab berish, she'r yozish, kuylar ijro etish, katta hajmdagi kitoblarga annotatsiyalar yozish, loyihalar tarixini chizish kabi yuzlab mehnat faoliyati turlarining barchasida, albatta, zamonaviy kompyuter texnologiyalari ham ishchi kuchi, ham vaqt jihatidan juda yaqin yordamchi sanaladi.

Shuning uchun hozirgi zamonda ta'lim tarbiya berishda aynan o'zbek tilini o'qitishda ilg'or pedagogik texnologiyalardan foydalanish maqsadga muvofiq. Bu pedagogic texnologiyalardan vosita yoki texnologiya sifatida foydalanish o'qituvchining mahoratiga bog'liq deb o'ylayman. Men aytmoqchi bo'lgan idrok xaritasi (intellectual xarita) ham huddi shu texnologiyaning bir qismi hisoblanadi.

Idrok xaritasidan bir vaqtni o'zida ham vosita ham texnologiya sifatida foydalanish mumkin. Idrok xaritasini yaratish uchun albatta o'qituvchi kompyuter

texnologiyalarini juda yaxshi o'zlashtirishi lozim. Buni yuqoridagi xarita misolida ko'ramiz.



Bu xaritada Toxir malikning ijod yo'li birin ketin joylashgan. Xaritaning markazida taniqli yozuvchi Toxir Malikning surati aks etgan. O'quvchilar bu suratlar ko'rsatilganda o'quvchilar tomonidan asarlar tahlil qilinib qaysi yozuvchi qalamiga mansub ekanligi topiladi. Bu vositaning qulayligi o'quvchilar aynan asar yoki kitobning muqovasidagi suratni ko'rib ham tezroq idrok qiladi. Idrok natijasida xaritadan birin ketin foydalanib boshqa asarlarni ham qiyosiy tahlil qilib boorish mumkin. Endi ushbu maqolamizning asl mohiyatiga qaytamiz.

Tilshunoslik bo'limlarini ham idrok xaritasi yordamida o'tish mumkinmi? segan savol tug'ilishi mumkin. Ha albatta bu vosita orqali Fonetika, Leksikologiya, Frazeologiya Morfologiya, Sintaksis kabi bo'limlarni ham huddi shunday xarita yordamida ham o'tsa bo'ladi.

Xaritaning markaziga misol uchun morfologiya bo'limiga tegishli bo'lgan ot so'z turkumini tushintirishda juda qo'l keladi. Masalan xaritaning markaziga ot so'z turkumi deb yoziladi. Markaz atrofida esa aynan kim? Nima? Degan savol javob bo'lgan barcha suratlar joylashtiriladi. O'quvchilar esa darhol suratlarga

qarab idrok qilishadi va javob berishadi. Darsni shu tariqa boshlash maqsadga muvofiq deb o'ylayman. Bu idrok xarita bilan yangi mavzuni o'tishda o'tgan mavzularni takrorlashda ham qo'llash mumkin. Idrok xaritasi o'quvchilarda tasavvur qilish va fikrlarni tizmlashtirish, o'tilayotgan mavzudagi bosh g'oyalar yoki asosiy tushunchalarni izohlashga yordam beruvchi ikkilamchi g'oyalar yoki tushunchalarni ajratish ko'nikma va malakalarini shakllantirishga qaratilgan.

Darsliklarda topshiriqlar ifodali o'qish, rollarga bo'lib o'qish, matnni yod olish, matn mazmunini hikoya qilish, matn mazmunini qisqarti-rib hikoya qilish singari ko'rinishlar mavjud. Ular o'quvchilarning og'zaki nutq malakalarining ortishiga omil bo'ladi. Bevosita yozma nutq takomiliga yo'naltirilgan topshiriqlar ham bor. 5-sinf darsligida nazariy tushunchalar elementar tarzda taqdim etilgan. Ona tilini uning o'ziga xosligidan kelib chiqqan holda o'rganishning boshlanishi yetuk kitobxonni shakllantirish uchun muayyan zamin yaratish imkonini beradi. 5-sinf darsligi bilan ishlashda o'quvchilarning badiiy matn mohiyatini, sehrini, tarovatini, shular asosida esa o'zbekcha so'z nazokatini tushunishlari, his etishlari, anglab yetishlari uchun dastlabki qadamlar qo'yiladi. Ammo har bir matnning o'ziga xos tarzidagi yondashuvlarni taqozo etishini ham unutmaslik kerak. Dastur va darsliklarda o'rganilishi ko'zda tutilgan matnlar badiiy qimmat, tarbiyaviy ahamiyati hamda o'quvchilarning yoshi, ruhiy imkoniyatlari, aqliy rivojlanish darajalariga mosligiga ko'ra tanlangan.

Idrok xaritasi namoyishlarni o'tkazish, qaror qabul qilish, o'z vaqtini rejalashtirish, katta miqdordagi ma'lumotlarni esda saqlash, aqliy hujumlarni o'tkazish, o'z-o'zini tahlil qilish, murakkab loyihalarni ishlab chiqish, mustaqil ta'lim, rivojlanish va shu kabi vazifalarni hal etishda ajoyib vosita bo'lib xizmat qiladi.

Adabiyotlar

1. O'zbek tili o'qitish metodikasi. B.To'qliyev
2. Urazova M. B., Khodjaev B. Kh. Intellect cards as a development factor of a professional competence of future teachers.
3. Бьюзен Т., Бьюзен Б. Супермышление. - Минск: Попурри, 2003. - 211с.